



ARTICLE INFO

Received: 30th September 2022

Accepted: 03rd October 2022

Online: 06th October 2022

KEY WORDS

Masofaviy ta'lim, axborot, kommunikatsiya, virtual auditoriya, ma'ruza, online muloqot, moodle tizimi.

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez suratlarda bilan rivojlanib bormoqda. Har soniyada sayyoramizning turli nuqtalarida yangidan yangi o'zgarishlar ro'y bermoqda. Axborotlar oqimi bizning hayotimizda yuksak darajadagi mavqeni egallaydi. Inson axborot ta'siridan tashqari muhitda normal faoliyat yurita olmaydi. Insonning aqliy qobiliyati ham o'zlashtirilgan ma'lumotlarning miqdori bilan belgilanadi. Shu boisdan ham ayni vaqtda, 21-asr axborot texnologiyalari asrida zamonaviy bilimlarni egallash va takomillashtirish, ulardan oqilona foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda bizning yurtimizga ham ta'limning masofadan o'qitish tizimi kirib kela boshladi.

Masofadan o'qitish bu- kommunikatsion vositalar; elektron pochta, internet, video-konferentsiya, video ma'lumotlar va multimedia o'quv qo'llanmalarga asoslangan uzoqdan turib o'qitish tizimidir. Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi elektron aloqa vositalari orqali

MASOFADAN O'QITISHNING PEDAGOGIK O'RNI VA AHAMIYATI

Kurbanbaeva Orazgul Baxbergen qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute, Pedagogika ham psixologiya yo'nalishi Magistratura bo'limi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7155165>

ABSTRACT

Ushbu maqolada ta'lim sohasida masofadan o'qitishning samaradorligi va afzalliklari alohida o'rganib chiqiladi. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars o'tish tizimi, ta'limning yangi usul va uslublari haqida fikr yuritiladi.

muloqatda bo'ladilar. Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagida bo'lganlar uchun qulay tizim. Ushbu tizimda eng yaxshi innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalaridan foydalaniladi.

Masofaviy ta'lim-masofadan turib o'quv jarayoni bilan bog'liq axborotlarni almashish imkonini beradi. Bu tizim aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatini ifodalab beruvchi sistemalar majmuyi.

Barcha ta'lim tizimlari kabi masofaviy o'qitish tizimi ham o'zining mazmuni, maqsadi, tarkibiy va tashkiliy qismlarga ega. Masofadan o'qitishning pedagogikadagi ahamiyati shundan iboratki, bu ta'lim tizimi an'anaviy o'quv jarayonidan farqli ravishda o'quvchi yoki talabadan mediasavodxonlikni talab etadi. Ayni bu tizimdan foydalanuvchilar internet tarmog'i haqida mukammal bilimlarga ega bo'lishi shart.

O'zbekiston boshqa mamlakatlar singari o'zining ta'lim sohasini jahon standartlariga olib chiqish masalasida ko'p



harakatlar olib bormoqda. Yangi masofadan o'qitish dasturlari va tarmoqlarning yaratilishi shular jumlasidandir. Masofaviy ta'lim pedagogikaning mustaqil bir tarmog'i sifatida belgilanadigan sistema. Ushbu ta'lim tizimida talaba mustaqil o'quv darsliklarini o'zlashtiradi. Masofaviy o'qitishni ta'limning barcha turlari va shakllari uchun birday qo'llash mumkin. Bunda texnik jihozlar ta'minoti yetakchi o'rinni egallaydi. Texnik jihozlar ta'minotidagi uzilishlar ta'lim sifatiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Masofadan o'qitishning o'ziga yarasha afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Afzallik tomonlari shundan iboratki, vaqt taqsimoti va har bir o'quvchi bilan individual ishlash imkonini beradi. Dars jarayonini multimedial dasturi, videoroliklar, zamonaviy uslublar yordamida o'tkazish o'quvchi-talabaning e'tiborini jalb etadi. Pedagog dars o'tish jarayonida yuqori mahoratga ega bo'lishi kerak. Chunki, bu tizimda chalg'ish ehtimoli yuqori. Agar talaba masofaviy o'qitish kursini muvaffaqiyatli yakunlamoqchi bo'lsa, o'zini g'ayratli va diqqatli qilishi kerak. Onlayn bilim berishning eng katta kamchiligi internet provayderlarining sekin ishlashi yoki aloqa uzilib qolishi. Bu vaziyatda talabaning ta'lum olishga intilishi so'nishi ro'y beradi. Masofaviy o'qitishni o'qitish jarayonida qo'llash sabablari shundan iboratki, ta'lim tizimida o'quv jarayonini tubdan isloh qilish, yangi kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan o'qitish usullarini yaratish va ularni amalda qo'llash.

Masofaviy o'qitish jahon miqyosida anchadan beri qo'llanib kelinadi. Tarix solnomalariga nazar tashlar ekanmiz, masofaviy o'qitish 1987-yili Chernov tomonidan tadbiq etilganini bilish mumkin. Hozirgi zamon mutaxassisi qaysi

sohada ishlamasin uning oldiga o'z sohasiga tegishli voqea-hodisalarni bilib o'rganib turishi va bilim saviyasini suniy ravishda oshirib borishi talab etiladi. Ayniqsa, bu talab pedagogika sohasida yuksak ahamiyatga molik masaladir. Masofaviy o'qitish tizimi ta'lim tizimining arzonligi, vaqt va joyga nomutanosibligi bilan ajralib turadi. Masofaviy o'qitishda videokonferentsiya, video va audio muloqot shakllaridan foydalaniladi. Tinglovchi elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalariga ega bo'lishi kerak. Elektron ta'limni tashkil etishning asosiy manbalariga virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar va ichki kontentni boshqaruvchi tizimlarni kiritish mumkin. Moodle- web muhitida o'qitish va online rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua. Ushbu tizim Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work kabi elementlarni o'z ichiga qamrab oladi. Moodle tizimidan foydalanish uchun tizimda yaratilgan ilovaga a'zo bo'lish talab etiladi. Ushbu tizimdan ilk bor foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tishlari lozim va shundan so'ng dasturda shaxsiy ma'lumot aks etadi. Tizim professor-o'qituvchilarga shaxsiy ma'lumotlarni tahrir qilish imkonini beradi.

Ma'ruza o'quv elementi masofaviy ta'lim tizimining asosiy mazmunini ifodalovchi elementlardan biri. Bunda ma'ruza amaliy darslarning ma'lumotlari aks etadi. Tashqi uskuna oynasi boshqa web-saytlarda joylashgan resurs va namunalarni kursga bog'lash imkonini beradi. Forum elementi- ma'lum vaqt davomida foydalanuvchilar o'rtasida muloqotni tashkil etadi ya'ni bunda talabalar bir-biri bilan ochiq muloqot o'rnatish olishi, kurs e'lonlarini, mundarija va ma'lumotlarini



muhoqama qila oladi. Ma'lumotlar ombori elementi-foydalanuvchiga barcha ma'lumotlarni izlash imkonini yaratadi. So'rov elementida professor-o'qituvchilar so'rovnoma o'tkazish huquqiga ega bo'ladi. Hozirgi davrda Moodle tizimi jahonning yirik institut va universitetlarida qo'llaniladi. Bu tizimda talaba va o'qituvchi fazoviy muloqotda bo'ladi. Bunda talaba dunyoning istalgan joyidan o'qish imkoniyatiga ega va talabalar cheklanmagan, vaqtning esa ahamiyati yo'q. Muhim tomoni shundaki, online darslarning bo'lishi o'qituvchida online savol-javob o'tkazish imkoniyati mavjud. Ba'zan o'qituvchi o'quvchi bilan elektron pochta orqali maslahatlashish yozma tashrif buyurishdan samaraliroq bo'ladi. Pedagogikada masofadan o'qitish tizimi o'zini oqlaydi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, masofaviy o'qitish bugungi kun ta'lim tizimining zamonaviy modeli. Ayniqsa, bu tizim pedagogikaning ajralalmas qismidir. Masofadan o'qitishning tarkibiy qismlarini o'qituvchi, o'quvchi va kommunikatsiyalar tashkil etadi. Masofadan o'qitish tashkiliy, iqtisodiy afzalliklarga ega. Bunda asosan moliyaviy xarajatlarga o'quv uslubiy materiallarni tayyorlash uchun sarflanadi. Tizimda o'qituvchi asosiy e'tiborini o'quv uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratishi darkor. Materiallardagi tushunarlilik va aniqlik dars mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Masofadan o'qitishda pedagoglardan birinchi navbatda axborot tizimini mukammal bilish, internetda ishlay olish qobiliyati talab etiladi. Pedagogik mahoratning yuqori darajasi masofaviy ta'limda mana shu me'yorlar bilan o'lchanadi.

References:

1. Xo'jayev, HodiyeV: "Yangi pedagogik texnologiyalar -O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti-Toshkent-2006"
2. Ziyomhammadov: "Ilg'or pedagogik texnologiya - Tafakkur bo'stoni Toshkent- 2012"
3. S.Qo'chqorova, A. Norbekov: "Masofaviy ta'lim texnologiyasi ma 'ruza matni Navoiy-2020".